

**YURTIMIZDA VA RIVOJLANGAN DAVLATLARDA MAKTAB TA'LIMINING  
YO'LGA QO'YILISHI. FINLANDIYA VA YAPONIYA TAJRIBASI****Z.Z.Inomjonov***Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti qishloq xo'jaligi huquqi va  
agroturizm kafedrası assistenti***S.Isomiddinov***Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot  
fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola rivojlangan davlatlar ta'lim tizimini o'rganish hamda yurtimizga moslashtirish hamda targ'ib qilish bu orqali davlatimizni rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, tarbiya, qonun, global davr, ta'lim tizimi, tajriba, iqtisod.*

Har bir jamiyatda uning rivoji hamda istiqbolini ta'minlab turuvchi bir qator omillar mavjud xisoblanadi. Xususan, iqtisodi bo'yicha dunyoning eng qudratli davlatlarining ham ma'lum bir tayanchi mavjud. Masalan yaponiya davlati asosiy e'tiborni texnologiyaga qaratgan bo'lib hozirda elektronika va robototexnikada yuqori top davlatlar qatorida turadi. Rossiya iqtisodi esa Asosan neft hamda o'rmon sanoatiga bog'liq yoki Singapur va Dubay kabi mamlakatlarda asosiy e'tibor turizmni rivojlantirish va shu orqali mamlakat budjetini shakllantirish yotadi. Lekin bularning bariga faqatgina bir omil bilan ya'ni ta'lim tizimini isloh qilish hamda yuqori darajadagi savodlilik bilan erishiladi.

Markaziy osiyoda joylashgan O'zbekiston ham o'z iqtisodini hamda siyosatini to'g'ri tashkil etish uchun Mustaqillik yillaridanoq Ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan 1992 yil ta'lim to'g'risidagi qonun qabul qilinib umumiy o'rta ta'lim majburiy ekanligi har kimning ta'lim olishga haqli ekanligi hamda bular davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo'yiladi. Keyinchalik ushbu qonun yanada isloh qilinib 1997 yilda hamda 2020 yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunlarning bu darajada tez fursatlarda o'zgarishiga asosiy sabab sifatida hozirgi keskinlashib borayotgan global davrda insonlarning huquq va manfaatlariga chuqur e'tibor qaratish hamda ular uchun yaxshi sharoitlarni ta'minlab berish yotadi.

O'zbekiston Respublikasi ham dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasini o'zrgangan holda ta'lim tizimini doim isloh qilib boradi. Masalan ta'lim sifati hamda darajasi bo'yicha dunyoning eng rivojlangan davlatlari xisoblangan Finlyandiyaning o'quv yili biznikiga o'xshaydi. Avgust oyida boshlanib, may oyida tugaydi. Kuzgi mavsumda 3-4 kunlik ta'til bo'ladi va yangi yil arafasida boshlanadigan ikki haftalik ta'til ham bor. Undan tashqari bahorda ham o'quvchilar dam olishga chiqadilar. Darslar 45 daqiqa davom etadi va ularning orasida 15 daqiqalik tanaffus bo'ladi. Farqli tomonlari ham bor. Imtihonlarning o'rniga bu yerda fanlar bo'yicha o'rta baho tizimi mavjud bo'lib, ularning asosida kollej va litseylarga qabul amalga oshiriladi ( bu ta'limning ikkinchi pog'onasi bo'lib, undan keyin ishlash yoki Oliy ta'lim muassasasiga kirish mumkin). 2020 yilga kelib, darslar boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Finlyandiyada maktab reformasi bo'ladi, unga asosan o'quvchilar har xil alohida fanlarni o'zlashtirmasdan, bir mavzuga oid bo'lgan qator fanlarni 'rganadilar. Masalan, iqlim

o'zgarishi haqidagi soha tanlansa, unda ekologiya, tabiatshunoslik, iqtisodiyot va siyosat o'rganiladi. Bunday mashg'ulotlar uch soatga yaqin bo'ladi. Fin maktablari ham bir necha marotaba eng yaxshi ta'lim muassasasi reytingidan joy olgan.<sup>20</sup>

Shuningdek rivojlangan davlatlar sirasiga kiruvchi Yaponiyada ta'lim olish 11 oyni tashkil etadi hamda qat'iy intizomga asoslangan holda tashkil etiladi darslar 8:30 da boshlanib kuni bo'yi davom etiriladi hamda e'tiborli jihati shundaki maktab sinf xonalarni tozalash ishlari o'quvchilar zimmasiga yuklanga bo'lib bu orqali bolalarga yoshlikdan ekologik madaniyat o'rgatib boriladi.

Davlatimiz ham mamlakatda istiqomat qiluvchi insonlarning teng huquqliligini ta'minlash maqsadida hamda bu yerda yashovchi turli etnik birliklarni borligini hisobga olgan holda Ta'lim tog'risidagi yangi tahrirdagi qonunda bir qator me'yorlar jamlangan, xususan qonunning 4- moddasida "Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeyi, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kinga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi."<sup>21</sup> deb belgilab qo'yilgan bunga ko'ra O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha insonlar ular boshqa millat vakillari bo'ladilarmi yoki ayol, erkak bo'ladilar shuningdek xar qanday dinga e'tiqod qo'yishidan qat'iy nazar teng huquqli xisoblanadi. "Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra ta'lim 7 turda amalga oshiriladi. Bular quyidagilar:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktab tizimda nafaqat ta'lim balki tarbiya ham asosiy e'tibor qaratiluvchi vosita hisoblanadi ze'ro ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.<sup>22</sup>

O'quvchi yoshlarga tarbiya berish bilan birga ularga huquqiy ta'lim ham berish o'rinli bo'ladi. Bolaga yoshligidan uning huquq va majburiyatlari haqida tushunchalar beriladigan bo'lsa kelajakda huquqbuzarliklar ham kamayadi.

Har bir davlat o'z milliyligidan kelib chiqqan holda jaxon tajribasidan foydalanishi kerak. Xususan yuqoridagi davlatlarda e'tibor qaratisa maktab ta'limi yaxshi yo'lga qo'yilgani bilan

<sup>20</sup> <https://Hidoya.uz> 2023yil 1 fevral

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi ta'lim tog'risidagi qonuni 2020 yil <https://Lex.uz>

<sup>22</sup> Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston milliy axborot agentligi <https://uza.uz/posts/70440> 16.06.2017

oilada ta'lim va tarbiyada bolaga kam e'tibor qaratilgani bois ularda deviant xulq atvor yuqori darajada. Deviant xulq atvor nima?

Deviant xulq atvor bu- jamiyat belgilab qo'ygan qonun qoidalarga mensimaslik bilan qarash ularga bo'ysinmslik xissining paydo bo'lishi hamda xulq-atvor jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqalardir

Buyuk Hind donishmandi Mahatma Gandi "Xonamni shamollatish uchun derazamni ochsam, toza havo bilan birgalikda chang-g'ubor ham kiradi. Lekin derazani yopib qo'ya olmayman, chunki menga toza havo kerak"<sup>23</sup> degan edi. bundan shuni tushunish mumkinki tangananing ikkinchi tomoni bo'lgani kabi har qanday davlat o'z ta'lim tizimida tubdan isloh qilmoqchi bo'lsa boshqa davlatlarning ta'lim tizimini o'rgangan holda uni milliylikka moslashtirishi afzal xisoblanadi.

Davlatimizda ta'lim tizimini yanada yaxshiroq natijaga olib chiqish uchun nima qilish kerak degan savol tug'iladi. avvalo

- Oilada ayolning o'rnini tog'ri taqsimlash hamda onaga ilm berishni yo'lga qo'yish bu bo'yicha mahalla xotin qizlar qo'mitasini ma'sul etib tayinlash zero ta'lim va tarbiya avvalo ona qornidan bolaga o'tadi. Bu orqali ham ona ilmli bo'ladi ham bolada aqliy tafakkur tug'ilmasdan paydo bo'la boshlaydi.

- Odatda insonlarning ko'p vaqtlari televizor qarshisida o'tishini xisobga olgan holatda bolalar uchun qizarli bo'lgan ularni charchatib qo'ymaydigan teledasturlarni ishlab chiqish va unda milliyligimizni aks ettirish.

- O'quvchilarning Ta'lim olish jarayonida ota onasini mehnat qilayotganini ko'rsatish bu oraqli bolada ota-onaning qadriga yetish va ularning oldida qanday burch mavjudligini xis etadi.

- Bolaga nafaqat maktab vaqtidan balki bo'gchada tarbiya olayotgan vaqtda nima to'g'ri-yu nima noto'g'ri ekanligi o'rgatish hamda ularga yoshlariga mos ravishda huquq va burchlarga ega ekanliklarini uqtirish kerak bo'ladi. Bu bilan bolada burch tuyg'usi shakllanib boradi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish orqali ta'lim va tarbiyada salmoqli natijaga erishsa bo'ladi. Faqat barchadan bir narsa talab qilinadi. Buning uchun Xitoylik faylasuf Konfutsiyning quyidagi so'zlarini eslash o'rinli bo'ladi.

"Modomiki to'xtamas ekansan. Sekin yoki tez yurayotganing ahamiyatsiz muhimi to'ztab qolmaslik.!!!"

<sup>23</sup> Globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri salohiyat-mezon ilmiy maqolalar to'plami Namdu 2017